

“BOTURXON VALIXO‘JAYEVNING “SAMARQANDDA OLIY TA‘LIM MADRASAYI OLIYA-UNIVERSITET TARIXIDAN LAVHALAR” KITABI TAHLILI”**Saydazimova Sanobar Samar qizi***Samarqand davlat universiteti magistranti*

Phone number: +998948828777

e-mail: saidazimovdilhosh2001@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Boturxon Valixo‘jayevning “Samarqandda oliy ta‘lim madrasayi oliya-universitet tarixidan lavhalar” kitobi tahlili, IX-XX asrning boshlarigacha Samarqandda faoliyat yuritgan madrasalar haqida, o‘sha davr ta‘lim tizimi va hozirgi kundagi ta‘lim tizimining o‘xshash va farqli jihatlari, kamchiliklari va yutuqlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar

madrasa, madrasayi oliya, universitet, abjad, mutavvali, mudarris.

“Insoniyat o‘zini tanibdiki, u hayotni, tabiatni bilish, yoshlarni hayotga o‘rgatish va tarbiyalash muammolariga duch kelib, bu muammolarni har bir davrda dunyoqarashi, hayotiy tajribalari va ijtimoiy ehtiyoj asosida hal qilishga uringan: turli xil yozuvlarni yaratgan, ularni o‘rgatuvchi (o‘qituvchi) va o‘rganuvchi (talaba)lari ham bo‘lgan. Ma‘lumki, ajdodlarimiz yaratgan “Avesto” yozuvi, Xorazmiy, turkiy, so‘g‘diy va boshqa yozuvlar hamda ana shu yozuvlarda yozilgan nodir yodgorliklarning ayrimlarigina bizgacha saqlanib qolgan. Demak, mana shu saqlanib qolgan yozma yodgorliklar qadimdayoq ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ta‘lim tizimidan bahramand bo‘lganlarning ishi, mehnatining natijasi ekanligi o‘z-o‘zidan ravshan. Ammo qadimiy davrlardagi ta‘lim-tarbiya tizimi va muassasalari haqidagi ma‘lumotlar juda kam, chunki mo‘ysafid tarixning turli xil voqea hodisalari tufayli bu borada so‘z yuritgan manbalar bizgacha saqlanmagan. Bizgacha saqlangan manbalardagi ma‘lumotlarning ko‘pchiligi mamlakatimizda islom tamadduni tarqalgan davrlarga tegishli bo‘lganidan ular ta‘lim-tarbiya tizimi va muassasalari arabcha atamalar, ya‘ni maktab, madrasa, madrasayi oliya tarzida qayd qilingan.”

“Boturxon Valixo‘jayev “Samarqandda oliy ta‘lim madrasayi oliya-universitet tarixidan lavhalar” kitobida Samarqandda IX asrdan to XX asrning boshlarigacha bo‘lgan davrdagi maktab, madrasalar faoliyati, ta‘lim-tarbiya tizimi, unda o‘qitilayotgan darsliklar, talabalar soni, mudarrislar haqida bizga qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirgan. Bu asarda dastlab IX-X asr maktablar holati keltirilib o‘tiladi. Muallif dastlabki maktablar masjidlar qoshida paydo bo‘lganini, ba‘zi maktablar esa o‘qituvchining o‘z uyida ochilganini va bu maktablarda ta‘lim 4-5 yoshdan boshlanganini aytib o‘tadi. Maktabning dasturida Qur‘oni Karim oyatlari, hadislar sharhi, shariat asoslarini o‘rganish, pandnoma asarlar, she‘riy asarlarni o‘qish va yodlash, arab yozuvi, abjad usulidagi hisob-kitobni bilish talab etilgan. Abjad usulini o‘rganayotgan o‘quvchilar “abjadxon” deb atalgan. Aynan o‘sha davr maktablarining holatini yoritishda B. Valixo‘jayev XIX asrning donishmandlaridan biri sanalgan Vojid al-Mujmalining “Matla ul-ulum va majma ul-funun” kitobida umumiy va o‘rta ta‘lim bosqichiga doir ma‘lumotlarni aynan keltirib o‘tadi va bu fikrlarni hozirgi kunga ham tadbiq etilsa maqsadga muvofiq bo‘lishini aytadi.

Muallif bu asarida IX-X asrlarda maktablarda ta‘lim tizimi 3 bosqichda bo‘lishini aytadi. Bular:

“1. Boshlang‘ich ta‘lim. Uning maskan joyi – maktab. Arablar uni “madrasat ul-ibtidoiya”-boshlang‘ich madrasa (dars o‘qish ta‘lim-tarbiya joyi) deb yuritganlar.

2. Umumiy ta‘lim. Uning maskani madrasa deb atalgan. Madrasa arabcha so‘z bo‘lib, arab, turk va fors lug‘atlarida maktab, bilim yurti, dars o‘qish joyi, madrasat ul-ulum- universitet tarzida izohlanadi. Shundan kelib chiqib, arablarda umumiy ta‘lim bosqichi boshlang‘ich ta‘lim bosqichidan farqli tarzda “madrasat ul-sonaviya”- ikkinchi bosqich madrasasi deb yuritilgan. Bunday madrasalar arab mamlakatlarida keyinchalik ixtisoslashgan ta‘lim dargohlariga nisbatan ham qo‘llanilib, “madrasatun harbiya” (harbiy bilim yurti), “madarsatun sanoiya” (texnikaviy bilim yurti), “madrasat ul-muallimin” (o‘qituvchilar insitituti) deb atalgan.

O‘rta Osiyoda, jumladan, Samarqandda ta‘limning ikkinchi bosqichi maskani madrasa tarzida ishlatilgan.

Biz hozirga qadar madrasa deganda diniy kadrlar tayyorlovchi ta‘lim dargohi, saqlanib qolgan madrasa binolarini esa me‘moriy obida sifatida tushunib kelardik va shu tarzda sharhlardik. Ammo bu binolar-madrasalarning asl vazifasi, ularning ta‘lim tizimidagi mavqei va shu bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy xususiyatlari haqida kam so‘z yuritilardi. Vaholanki, madrasalarning ta‘lim tizimidagi asl mohiyati esa zamona talablari nuqtai nazaridan mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Madrasalarda ilmi naqliyaga alohida e‘tibor qaratilib, ilmi aqliya umumiy

ma'lumot uchun o'rgatilgan. Bunday madrasalar faqat shaharlarda emas, balki tuman va hattoki katta mahallalarda ham bo'lgan. Bu madrasalarning hajmi ehtiyojga qarab belgilanib, shunga ko'ra vaqflar ham berkitilgan. Ulardagi mudarris va hodimlar, talabalar soni shu vaqfnomada belgilangan."

Muallif madrasa bosqichidan keyin talabalarni oliy ta'lim ya'ni "madrasayi oliya- madrasat ul-ulum" da davom ettirishganligini aytadi. Madrasayi oliya so'zining ma'nosini L.Z.Budagov hozirgi universitet maqomidagi ilm dargohi ekanligini lug'atda qayd qilgan.

B.Valixo'jayev madrasa deyilganda faqatgina me'moriy obida yoki diniy bilim beradigan muassasani tushunmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Balki madrasalarni hozirgi kundagi universitetlarga teng qo'yadi. Bu fikrini asoslab madrasalarda turli yo'nalishdagi kasb mutaxassislarini tayyorlanganini (masalan harbiy, o'qituvchilar) aytib o'tadi. Muallif XV asrda Mirzo Ulug'bek tomonidan qurdirilgan, o'z davrida juda mashhur bo'lgan "Mirzo Ulug'bek madrasayi oliyasi"ni hozirgi kundagi Samarqand davlat universiteti bilan bog'laydi. Nafaqat, SamDU balki boshqa viloyatdagi universitetlar tarixini o'z davrida mashhur bo'lgan universitetlar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

3. "Oliy ta'lim. Madrasayi oliya ilmiy jihatdan yuksak darajaga erishgan allomalar to'plangan joylarda, jumladan Bag'dod, Samarqand, Xiva, Buxoro va shunga o'xshash shaharlarda faoliyat ko'rsatgan.

Bunday madrasayi oliyalarda islomiy tamaddun hududlaridagi turli viloyat va mintaqalardan eng iqtidorli talabalar tahsil olganlar. Jumladan, Samarqanddagi madrasayi oliyalarda faqat Movarounnahrda emas, balki Xuroson va hatto, Arabistonning turli viloyatlaridan kelib ta'lim olgan tolibi ilmlar haqidagi ma'lumotlar mavjud. Shuni ham uqtirish kerakki, bu hol besabab emas edi. Chunki madrasayi oliyalarda ta'lim va ilmiy kuzatishlar jarayonini amalga oshirish uchun qaysi o'lkalardan bo'lishlaridan qati' nazar yetuk allomalar jalb qilinganlar."

Bundan ko'rinadiki, madrasayi oliya ta'lim bosqichida mudarrislar ilm-u salohiyatiga, dars o'ta olish qobiliyatiga qarab uzoq hududlardan bo'lsa ham olib kelingan. Bu haqda Mahmudxo'ja Behbudiy yunon allomalaridan olib kelingani va ularning madrasalarda dars berganini aytib o'tadi.

XIV asrning ikkinchi yarmi XV asrning boshlarida Mirzo Ulug'bek madrasasiga ham Rum, Xuroson mamlakatlaridan mudarrislar olib kelingan. Biz bu holatni hozirgi davrdagi ta'lim jarayoni bilan qiyoslaydigan bo'lsak, hozirgi kunda ham chet elning malakali mutaxassislarini tajriba almashish, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'limga joriy qilish uchun mamlakatimizga taklif qilinadi. Boturxon Valixo'jayev madrasayi oliya so'ziga ikki xil ta'rif beradi. Birinchisi madrasa hajmining ulug'ligi, naqshinkorligi, koshinkorligi me'moriy obida sifatida mashhurligi bo'lsa, ikkinchi ta'rif boshqa madrasalardan farq qiluvchi ta'lim dargohining eng oliy bosqichi ekanligini ta'kidlaydi. Bu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, madrasayi oliya o'z davrida mashhur va ulug'vor obida, ta'lim maskani sifatida ulug'langan.

Boturxon Valixo'jayev "Samarqandda oliy ta'lim madrasayi oliya-universitet tarixidan lavhalar" kitobida Samarqandda 17 madrasa faoliyat ko'rsatganini aytadi. Afsuski, bu madrasalar haqida yozma ma'lumotlar bizgacha to'liq yetib kelmagan. Ba'zi ma'lumotlardan ya'ni vaqfnomalarda madrasa va madrasayi oliyalarda o'quv jarayonini tashkil etish, hodimlarning (mutavalli, mudarris, farrosh) kabilarning oylik maoshi, talabalar soni kiritilgan lekin bu hujjatlar bizgacha yetib kelmagan. Madrasalarda ta'lim jarayonida albatta bir dasturi amal bo'lganligi aniq. Fanlardan diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'qitilgan. Talabalar uchun madrasalar qoshida kutubxonalar ham tashkil qilingan. Muallif asarida o'z davri uchun ma'lum va mashhur bo'lgan mudarrislar faoliyati bilan ham tanishtirib o'tadi.

Boturxon Valixo'jayev asarida Sohibqiron Amir Temur va Mirzo Ulug'bek davridagi maktab, madrasa, madrasayi oliyalar faoliyatiga alohida to'xtaladi. Ta'lim sohasi eng yaxshi taraqqiy etgan davrlar, albatta, mamlakat obodonligi, xalqning farovon hayotda yashayotganligida va bu sohaga katta e'tibor qaratilganda rivoj topadi. Aynan Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davrida ta'limga, ilm-u ma'rifatga katta e'tibor qaratilgan. Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida ta'lim tizimini takomillashtirish va uni yo'lga qo'yish rejasi bo'lgan.

Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma'rifatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni teran anglagan Sohibqiron Amir Temur hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasa barpo etish, ilmi toliblariga nafaqalar tayinlash bilan bog'lagan. Mazkur fazilat Sohibqironning avlodlari, ayniqsa, Mirzo Ulug'bekka o'tgani shubhasiz.

Darhaqiqat, Amir Temur mamlakatning taraqqiyoti, tinch osoyishtaligini ta'minlovchi omillarga qanchalik e'tibor qilgan bo'lsa, undagi ta'lim tizimiga, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishga ham shunchalik e'tibor bergani tufayli ta'lim tizimi dargohlari maydonga kelgan, zabardast ulamo-yu allomalar faoliyat ko'rsatish uchun imkoniyatlar yaratilgan edi. Amir Temurning bu fazilatlarini temuriyzodalar, jumladan, Mirzo Ulug'bek, Ibrohim Mirzo va boshqalarga o'tgan edi.

XIV – XV asrdagi madrasalar faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Alisher Navoiyning "Ixlosiya" madrasasini keltirib o'tish joiz. Bu madrasa haqida ma'lumotlarni Navoiyning "Vaqqiya" asaridan ko'rishimiz mumkin. Navoiy o'sha davrda mudarris va madrasa hodimlariga yillik vaqf-maosh, tolibi ilmlarga esa ham oylik ham yillik vazifa-

maoshni belgilagan. Jumladan bu maoshlar mudarris va mutavallining darajasiga qarab, tolibi ilmlarning o'zlashtirish salohiyatiga qarab belgilangan. Bundan ko'rinadiki, bu jarayon hozirgi kundagi oliy ta'limdagi professor-o'qituvchilarga oylik-maosh berish va talabalarga stipendiya berish tizimiga o'xshaydi. Alisher Navoiy tolibi ilmlarning uch toifasini keltirgan. Bular a'lo guruhi, o'rta guruhi, adno (past) guruhga kiritgan. Mudarrislarning ikki toifasini keltirgan: sadr-mutavalli va mudarris olimi mutaqqiy.

O'sha davr madrasayi oliyalar uchun asosiy boshqaruv mutavalliga berilgan, lekin ba'zi masalalarni "ikki mudarris ittifoqi ila" hal qilgan. Bunda boshqaruvning kengash qarori asosida amalga oshirilishiga ishora qilinmoqda. Agar e'tibor qilinsa, bu hozirgi zamon oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy kengashlarning kichik bir shakli, mohiyatan aynan o'zidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Boturxon Valixo'jayevning "Samarqandda oliy ta'lim madrasayi oliya-universitet tarixidan lavhalar" kitobi bizga IX asrdan to XX asrgacha bo'lgan vaqt oralig'idagi Samarqanddagi madrasa va madrasayi oliyalar haqida ma'lumot beradi. Bunda juda muhim masala- tarix va hozirgi zamon, ajdod va avlodlar o'rtasidagi vorisiylik masalasidan so'z bormoqda. Darhaqiqat, xalq va Vatan tarixi, madaniyat, ilm-fan va ma'naviyat tarixi hamda yosh avlodni tarbiyalash, ularni o'qitish, komil inson sifatida shakllantirish muammolari ham jamiyat tarixida uzluksiz tarzda davom etadi: biri ikkinchisini boyitadi, ikkinchisi esa uni davr va zamon talablari asosida rivojlantiradi, yuqori pog'onalariga ko'taradi. Ana shu uzluksiz vorisiylik bilan bog'liq muammolardan biri o'tmish ta'lim tizimi, xususan oliy ta'lim muassasalari madrasa, madrasayi oliyalar tarixidan ayrim lavhalarni Boturxon Valixo'jayevning "Samarqandda oliy ta'lim madrasayi oliya-universitet tarixidan lavhalar" kitobida keltirib o'tdi. Bundan muallifning maqsadi shu ediki, madrasa va madrasayi oliyalarning o'tmish ta'lim tizimidagi katta maqsadga yetarlicha e'tibor qilinmas, madrasalarning imoratlari faqat me'moriy obida sifatida qaralardi. Vaholanki, o'tmishdagi yirik madrasayi oliyalar o'z zamonasining universitetlari maqomida bo'lib, ilmiy kadrlar, murabbiy va o'qituvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazishda katta hissa qo'shganlar. Ulardagi o'quv jarayoni, mudarris va talabalar tanlash, o'qitish uslubi, darslik va qo'llanmalar, bitirganlarga hujjat-ijozatnomalar berish, mudarris va talabalarni moddiy jihatdan ta'minlash, yirik allomalarni taklif etish va boshqa masalalarda nihoyatda puxta o'ylangan va tajriba-sinovdan o'tgan tadbirlar amalga oshirilgan. Bu jihatdan Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan madrasayi oliya majmuasi alohida ahamiyat kasb etadi. U o'z davrida faqat Movarounnahrda emas, balki Sharqning islomiy tamaddun tarqalgan hududlarida tanilgan va e'tirof etilgan oliy ta'lim dargohi sanalardi.

Mirzo Ulug'bekning madrasayi oliyasi keyinchalik zamon va davrlar taqazosiga ko'ra bir maromda bo'lmasa-da, XX asr boshlarigacha o'z faoliyatini davom ettirdi. Shundan so'ng Samarqandda avval Pedakademiya maydonga kelib, keyinchalik u universitetga aylantirildi va hozirda Samarqand davlat universiteti deb ataladi. Bu bejiz emas, chunki bunda ham o'tmish ham hozirgi zamon o'rtasidagi vorisiylik qonuniyati amal qiladi.

Xulosa shuki, Samarqand davlat universiteti Mirzo Ulug'bek madrasayi oliyasining ma'lum ma'noda bevosita vorisi bo'lib, uning ta'xis etilish tarixi bilan bog'lash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ботурхон Валихужаев. Самаркандда олий таълим мадрасайи олия-университет тарихидан лавҳалар. А.Кодирий номидаги халқ мероси нашрийоти. . Самарканд-2001
2. Ziyaeva D. XIX asr oxiri-XX asr boshida Turkistonda ananaviy ta'lim tizimi muammolari // Toshkent Islom universiteti. Ilmiy – tahliliy axborot. 2009. №3
3. Valixo'jaev B. Oliy ta'lim tizimi tarixining teran ildizlari // Ma'rifat, 2001 yil, 19-dekabr.
4. Valixo'jaev B. Temuriylar qurgan madrasai oliyalar // Zarafshon gazetas, 2001 yil 17 aprel.
5. Kattaev K. Samarqand madrasalari va ilmu fan rivoji. – Samarqand, "Zarafshon" nashriyoti, 2007.

¹ Ботурхон Валихужаев. Самаркандда олий таълим мадрасайи олия-университет тарихидан лавҳалар. А.Кодирий номидаги халқ мероси нашрийоти. . Самарканд-2001. 6-б.

² Ботурхон Валихужаев. Самаркандда олий таълим мадрасайи олия-университет тарихидан лавҳалар. А.Кодирий номидаги халқ мероси нашрийоти. . Самарканд-2001. 11-12-б.

³ Ботурхон Валихужаев. Самаркандда олий таълим мадрасайи олия-университет тарихидан лавҳалар. А.Кодирий номидаги халқ мероси нашрийоти. . Самарканд-2001.-б.